

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

NUTQ BU OG'ZAKI KOMMUNIKATSIYA

Abdurahmonova Dinora Abdurashid qizi

Abdullayeva Dinara Fayzullo qizi

Annotasiya

Nutq madaniyati o'qituvchida yuksak darajada rivojlangan bo'lishi shart. Bunda ovoz ham ahamiyatli hisoblanadi. O'qituvchi nutqi jarangdor, aniq, turli shevaga xos so'zlardan holi bo'lishi zarur. Dunyodagi har bir kasbni egallashdagi eng muhim qurol bu nutq madaniyatidir. Nutq haqida allomalarimiz ham o'z fikrlarini qoldirgan.

Kirish.

Nutq madaniyati og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati hisoblanadi. Tilshunoslikning tilni madaniyat qurol sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o'rganuvchi bo'limidir. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "Til madaniyati" termini ham qo'llaniladi. 1-ma'nodagi "nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi ikkita bosqichni qamrab oladi.

a) nutqning to'g'riligi va boshqa nutqiy mahorat.

b) nutq madaniyati

Nutqning to'g'riligi, muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy meyyorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy meyyorlarga amal qilishi, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir.

O'qituvchi nutqi adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilishda o'quvchilarga namuna bo'lishi lozim. Adabiy talaffuz me'yorlarining buzilishi eng avvalo shevaning natijasida yuzaga keladi. Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy tajribada biron bir mohiyatini anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi o'qituvchida qator maxsus qobiliyatlar rivojlanishini talab qiladi: sotsial-perseptiv qobiliyati, ijtimoiy tasavur qobiliyati, o'zini o'zi boshqara olish qobiliyati, muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati, irodaviy ta'sir ko'rsatish, ishontira olishlik qobiliyati. Nutq malakalari va kónikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi

kishining umumiy, ruhiy, jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish k zda tutiladi.  qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy tasir k rsatish uchun  qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga ega b lishi lozim.

Madaniy nutq adabiy til vositalari, ularning jozibador ifodasi tufayli yuzaga chiqadi. Badiiy til vositalarni o'z o'rnida mohirlik bilan qo'llash nutqning ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi. **Adabiyotshunoslik** fanida badiiy vositalar uzoq davrlardan buyon o'rganib kelinmoqda.



 qituvchi nutqining kommunikativ  ziga xosligi bilan bilimni  quvchilar tomonidan qabul qilinishi va eslab qolishi  rtasida t g'ridan-t g'ri aloqa bor. Nutq buni ta'minlashi yoki qiyinlashtirishi mumkin.  qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay,  quvchining ongi, sezgisiga ta'sir qilishi, ularni o'ylash faoliyatiga ijobiy ta'sir etishi kerak.

Madaniy nutqda tilning
ogʻzaki hamda yozma
shakllaridan foydalaniladi.
Bu nutq madaniyatining
tilshunoslik bilan
bogʻliqligini koʻrsatadi.
*Ona tilim, sen borsan,
shaksiz, Bulbul tilin
she'rga solaman. Sen
yo'qolgan kuning,
shubhasiz, Men ham to'ti
bo'lib qolaman. (A.O.)*



Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri “Qobusnoma”da ham til va nutqqa alohida etibor berilgan boʻlib, ular hozir ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmaganligini koʻrishimiz mumkin. Kaykovus hamma hunarlar ichida soʻz hunari notiqligini aʼlo deb biladi. Bilingki, hamma hunardan soʻz hunari yaxshi, shuning uchun ham kishi suxandon va notiq boʻlishi kerak deb taʼkidlaydi Muallif notiqlikni egallashning yoʻlini tinimsiz mehnat va oʻrganish deb uqtirgan.



Madaniy nutq axloq qonuniyatlari bilan aloqador. Nutq madaniyatida **etika**ning turli shakllari o'z aksini topadi. Har bir millatga tegishli axloqiy qonun va qoidalar mavjud. Hazrat Alisher Navoiy: *Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz, deb ta'kidlagan edi.*

Made with VideoShow

Madaniy nutq insondagi **estetika** (*nafosat*)ning yorqin shakllarini namoyon etadi. Nafosat turli millatlarda har xil shaklda bo'ladi.

O'zbekona nafosat o'zgacha bo'lib, uni his qilish uchun, tanasidagi qoni, yuragidagi shuuri shu millatga tegishli bo'lishi shart.



Made with VideoShow

Madaniy nutqning asosini mantiqiy fikrlash tashkil etadi. Shu bois nutq madaniyati mantiqning asosiy mezonlarisiz yuzaga chiqmaydi. Al-Forobiyning shunday fikri bor: *“Mantiq tafakkurni to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun aqlni peshlab turadi”*.



XULOSA

Óqituvchi har doim o'z ustida ishlashi, yangiliklardan xabardor bo'lishi, innovatsiyalarga ijobiy qarashi, o'zi ham novator bólishi maqsadga muvofiq. Kichik sinflarda uztoz nutqi ravon, jarangdor, turli jargon vositalardan holi bo'lishi, umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy ta'sir etadi deb hisoblayman. Óqituvchining ovozi, talaffuzi, diksiyasi, umuman, nutqi hamisha o'quvchi uchun o'ziga xos namuna vazifasini bajaradi. Kasbiga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisining ko'z óngida qusursiz va bilimli, qadrli va mehribon ustoz ko'rinishida ko'rinadi. Buni saqlab qolish esa faqat o'qituvchining o'ziga bog'liqdir

References:

1. Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari Toshkent. "Sharq" 1999 256 b
2. Ona tili- davlat tili. Toshkent "Adolat" 2004 80 b
3. Kommenskiy Ya. A Buyuk didaktika- T O'qituvchi, 1975, 238 b
4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya- T 2003, 68 b.

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

5.Internet saytlari.